

**MEHNATGA LAYOQATLI YOSHDAGI AHOLI BIRLAMCHI NOGIRONLIGINING
KASALLIK SINFLARI BO'YICHA DINAMIKASI**

Matxoshimov Nodirjon Soyibjonovich – PhD, katta o'qituvchi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston.

E-mail: nodir_tib_83@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-7312-917X>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Farg'ona viloyatida 2010–2019-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birlamchi nogironlikka chalinishiga olib keluvchi asosiy kasallik sinflarining 10 yillik dinamikasi tahlil qilingan. Tahlillar natijasida xavfli o'smalar (14,9%), qon aylanish tizimi kasalliklari (14,8%) va ruhiy kasalliklar (12,4%) asosiy sabablar sifatida ajralib chiqqan. Shuningdek, maqolada past ko'rsatkichga ega bo'lgan kasallik sinflari, masalan, qon kasalliklari (1,1%), quloq kasalliklari (1,7%) va nafas organlari kasalliklari (2,3%) ham ko'rib chiqilgan. Muallif ushbu statistik ma'lumotlar asosida kasalliklarni erta aniqlash, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va profilaktik choralarni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: birlamchi nogironlik, mehnatga layoqatli yosh, kasallik sinflari, xavfli o'smalar, ruhiy salomatlik, profilaktika, Farg'ona viloyati.

Аннотация. В данной статье проанализирована 10-летняя динамика первичной инвалидности среди трудоспособного населения Ферганской области в зависимости от классов заболеваний в период с 2010 по 2019 год. Установлено, что основными причинами инвалидности являются злокачественные новообразования (14,9%), заболевания системы кровообращения (14,8%) и психические расстройства (12,4%). Также рассмотрены заболевания с низким удельным весом, такие как болезни крови (1,1%), заболевания уха (1,7%) и органов дыхания (2,3%). Автор подчеркивает необходимость усиления профилактических мероприятий, раннего выявления заболеваний и пропаганды здорового образа жизни.

Ключевые слова: первичная инвалидность, трудоспособный возраст, классы заболеваний, злокачественные новообразования, психическое здоровье, профилактика, Ферганская область.

Abstract. This article analyzes the 10-year dynamics (2010–2019) of primary disability among the working-age population in Fergana region by disease classes. The analysis revealed that the leading causes of disability were malignant neoplasms (14.9%), circulatory system diseases (14.8%), and mental disorders (12.4%). Diseases with lower shares such as blood diseases (1.1%), ear diseases (1.7%), and respiratory diseases (2.3%) were also examined. Based on these findings, the author emphasizes the importance of strengthening preventive measures, early disease detection, and promoting a healthy lifestyle to reduce disability rates.

Keywords: primary disability, working-age population, disease classes, malignant neoplasms, mental health, prevention, Fergana region.

Dolzarbliigi. Bugungi kunda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining sog'lig'i va ularning to'laqonli mehnat faoliyatini ta'minlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Ayni paytda, birlamchi nogironlik holatlarining ortib borishi nafaqat sog'liqni

saqlash tizimi, balki butun jamiyat uchun dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda [1,5,7,8,10].

So'nggi o'n yilliklar davomida dunyo bo'ylab, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarda mehnatga layoqatli yoshdagi aholining sog'lig'i va jismoniy imkoniyatlari jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammo sifatida ko'tarilmoqda [2,9].

Nogironlikning asosiy sabablari sifatida yurak-qon tomir kasalliklari, onkologik kasalliklar, ruhiy va asab tizimi bilan bog'liq patologiyalar ustunlik qilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha har yili 15% dan ortiq mehnatga layoqatli yoshdagi aholining sog'lig'i nogironlik sababli cheklanmoqda. O'zbekistonda esa so'nggi yillarda mehnatga layoqatli aholining nogironlikka chalinish holatlari barqaror yuqori darajada saqlanib qolmoqda [3,4,6].

Mazkur tahlil Farg'ona viloyatida nogironlikning asosiy kasallik sinflari bo'yicha tarkibini aniqlash, ularning dinamikasini tahlil qilish orqali sog'liqni saqlash siyosatini takomillashtirishga, profilaktika choralarini kuchaytirishga va aholi salomatligini mustahkamlashga ilmiy asos yaratadi. Shu bois, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining nogironligiga sabab bo'layotgan kasalliklarni chuqur tahlil qilish va ularga qarshi samarali strategiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Tadqiqot maqsadi. Farg'ona viloyatida 2010–2019-yillar davomida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birlamchi nogironlikka chalinishiga olib keluvchi asosiy kasallik sinflari bo'yicha dinamikani o'rganish, ularning strukturaviy o'zgarishlarini aniqlash va nogironlikning yuqori ulushiga sabab bo'layotgan omillarni tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqot uchun asosiy material sifatida Farg'ona viloyati bo'yicha 2010–2019-yillar davomida birinchi marta nogiron deb topilgan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi to'g'risidagi rasmiy tibbiy-statistik ma'lumotlar olindi. Ma'lumotlar viloyat nogironlikni belgilovchi tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyalari (TMEK), Sog'liqni saqlash boshqarmasi va Davlat statistika qo'mitasining hududiy bo'limlari axborotlariga asoslangan.


Tadqiqot natijalari va uning muhokanasini. Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birlamchi nogironlik kasallik sinflari bo'yicha 10 yillik dinamikasi o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, kuzatuvning barcha yillarida 1-o'rinni xavfli o'smalar tufayli nogironliklar egallab, o'rtacha 14,9%ni, 2-o'rinni qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 14,8%ni, 3-o'rinni ruhiy kasallik tufayli nogironlik 12,4%ni, 4-o'rinni asab tizimi kasalliklari tufayli nogironlik o'rtacha 8,7%ni, 5-o'rinda esa jarohatlar tufayli nogironlik 8,3%ni tashkil etdi (1-jadval).

Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birinchi marta nogiron deb topilganlarning kasallik sinflari bo'yicha strukturasi va uning dinamikasini tahlil qilish maqsadida, 2010-2019-yillar davomida statistik ma'lumotlar ko'rib chiqildi. Bu davr mobaynida kasallik sinflari orasida ro'y bergan o'zgarishlar ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tibbiy xizmatlar sifati va profilaktika choralarining ta'siri bilan izohlanadi. Jumladan xavfli o'smalar kasalliklari nogironlikka olib keluvchi eng asosiy kasalliklardan biri bo'lib, kuzatuv yillarida o'rtacha ko'rsatkich 14,9% ni tashkil etdi. Bu kasallik sinfi nogironlikning birinchi darajali sabablaridan biri hisoblanadi. Qon aylanish tizimi kasalliklari – ikkinchi o'rinni egallagan bu sinfning o'rtacha yillik ko'rsatkichi 14,8% ni tashkil etib, kuzatuv davrida sezilarli kamayish kuzatildi. Ruhiy kasalliklar – ushbu guruhning nogironlikka ta'siri o'rtacha 12,4% darajasida bo'lib, vaqt o'tishi bilan o'sish kuzatildi. Demak, ruhiy kasalliklarning profilaktikasiga e'tibor oshirilishi lozim. Nerv tizimi kasalliklari – bu sinfning o'rtacha ko'rsatkichi 8,7% ni tashkil etib, davr davomida o'sish tendensiyasi kuzatildi (1-rasm).

1-jadval

**Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birinchi marta nogiron deb
topilganlarning kasallik sinflari bo'yicha strukturasi dinamikasi. (%)**

№	Kasallik sinflari	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	O'rta- cha yillik	Ran- gi
		%	%	%	%	%	%	%	%	%	%	%	
1	Tuberkulyoz	4,3	3,3	4,2	4,5	3,7	3,6	3,3	2,8	2,9	2,4	3,5	11
2	Xavfli o'smalar	11,6	14,2	16,3	15,4	17,9	16,2	16,9	13,1	12, 7	12,4	14,9	1
3	Endokrin tizim kasalliklari	5,7	5,5	5,0	5,2	4,9	4,7	5,9	5,5	5,8	7,2	5,5	8
4	Qon kasallikri	1,3	1,4	1,5	1,3	1,4	1,3	1,1	1,0	0,4	0,7	1,1	16
5	Ruhiy kasallar	9,6	12,0	10,0	11,7	12,4	12,0	13,6	15,4	14, 3	13,4	12,4	3
6	Nerv tizimi kasalliklari	7,8	9,5	8,8	8,0	6,7	7,0	11,1	12,0	13, 9	9,7	8,7	4
7	Ko'z kasallik-ri	4,9	5,6	5,6	5,3	5,4	4,0	4,0	4,5	4,4	4,4	4,8	9
8	Quloq kasal- ri	1	1,7	1,8	1,7	2,3	3,1	2,0	1,6	1,3	0,8	1,7	15
9	Qon aylanish tizimi	18,6	15,9	16,0	16,7	15,5	16,1	11,6	10,7	9,8	14,8	14,8	2
10	Nafas organi kasalliklari	2,7	1,4	1,8	1,2	1,6	1,7	2,1	2,6	3,4	4,2	2,3	13
11	Hazm organlari kasalliklari	5,7	6,4	5,3	6,4	3,9	7,5	6,6	7,9	7,9	7,9	6,6	6
12	Siydik- tanosi organlari	2,8	2,4	3,7	3,3	3,9	3,0	3,2	2,7	2,9	2,7	3,1	12
13	Suyak- mushak tizimi kasal.	8,5	6,3	5,1	5,3	4,9	5,4	5,1	6,2	7,5	7,5	6,2	7
14	Jarohatlar	9,1	8,2	8,7	8,4	7,9	8,8	8,3	8,1	6,6	6,2	8,3	5
15	Boshqalar	6,4	6,2	6,2	5,6	7,6	5,6	5,2	5,9	6,2	5,7	6,1	14
	Jami	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	



1-rasm. Birlamchi nogironlikka sabab bo'luvchi yuqori o'rinlarni egallab kelgan kasalliklar (%)

Jarohatlar – 8,3% ko'rsatkich bilan nogironlikka olib keluvchi asosiy sabablar qatorida, ammo 2010-yildan 2019-yilgacha biroz kamayish kuzatildi. Hazm organlari kasalliklari – 6,6% o'rtacha ko'rsatkich bilan ushbu kasalliklar ham sezilarli darajada ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Suyak-mushak tizimi kasalliklari – ushbu guruhning ulushi 6,2% bo'lib, 2010-2019-yillar davomida o'zgarishlar sezilarli emas. Kam tarqalgan kasalliklar qatorida tuberkulyoz – o'rtacha 3,5% ko'rsatkich bilan ushbu sinfning ulushi davr davomida kamayib bordi. Quloq kasalliklari – 1,7% ulush bilan eng kam uchraydigan sinflardan biri bo'ldi. Qon kasalliklari – o'rtacha 1,1% ulushni tashkil etib, nogironlikka sabab bo'luvchi kam tarqalgan sinflar qatoridan joy oldi (1-rasm).

Ushbu ma'lumotlar asosida Farg'ona viloyatida nogironlikni oldini olish bo'yicha tibbiy profilaktika choralari kuchaytirish, xavfli o'smalar va ruhiy kasalliklarni o'z vaqtida aniqlash va davolash bo'yicha dasturlarni kengaytirish zarur. Shuningdek, aholini sog'lom turmush tarziga o'rgatish va tibbiy xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu tahlil sog'liqni saqlash tizimini rejalashtirish va nogironlikka sabab bo'luvchi omillarni kamaytirish yo'nalishida muhim ilmiy asos yaratadi.

Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi birinchi marta nogiron deb topilganlarning kasallik sinflari bo'yicha strukturasi 10 yillik dinamikasi aholi orasida birinchi marta nogiron deb topilgan mehnatga layoqatli yoshdagilarning kasallik sinflari bo'yicha o'zgarishini ko'rsatadi. Dinamika 2010–2019-yillar oralig'idagi ma'lumotlarga asoslangan.

Kasallik sinflari bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarni xavfli o'smalar tufayli nogironlik birinchi o'rinni egallab, 14,9%ni, 2014-yilda esa eng yuqori 17,9%ni tashkil etgan. Qon aylanish tizimi kasalliklari dinamikada o'rtacha 14,8%, ikkinchi o'rinni egallab, 2010-yilda eng yuqori ulush 18,6%ga etgan, ammo yillar davomida pasayish tendensiyasi kuzatildi. Ruhiy kasalliklar o'rtacha 12,4%ni, yillar davomida sezilarli ravishda oshib, 2017-yilda eng yuqori darajaga 15,4%ga etgan.

Kasallik sinflari bo'yicha 10 yillik dinamika tahlilida past ko'rsatkichlarda qon kasalliklari yillik o'rtacha 1,1%ni, 2018-yilda eng past ko'rsatkich 0,4%ni qayd etdi. Shuningdek, quyi o'rinlarni nafas organi kasalliklaridan nogironlik 2,3%ni, pasayish sur'atida saqlanib qolgan. Quloq kasalliklari sabab nogironlik esa 1,7%ni egallab, pasayish tendentsiyasi kuzatildi.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida xavfli o'smalar, qon aylanish tizimi va ruhiy kasalliklar

tufayli nogironlik Farg'ona viloyatida birlamchi nogironlikka olib keluvchi asosiy kasalliklar sifatida ajralib turdi. Past ko'rsatkichlarga ega kasalliklar esa, asosan, qon kasalliklari va nafas organi muammolari bilan bog'liq. Ushbu statistik tendensiyalar hududiy sog'liqni saqlash tizimining e'tiborini yuqori xavfli kasalliklar bilan ishlashga qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Farg'ona viloyatida 2010-2019-yillarda mehnatga layoqatli yoshdagi birinchi marta nogiron deb topilganlar orasida xavfli o'smalar, qon aylanish tizimi, va ruhiy kasalliklar asosiy sabablar bo'lib, ular mos ravishda 14,9%, 14,8% va 12,4% ulushni tashkil etdi. Ushbu davrda xavfli o'smalar va ruhiy kasalliklar ulushi ortgan, qon aylanish tizimi kasalliklari kamaygan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aholi orasida profilaktika choralari kuchaytirish, Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlikka olib keluvchi kasalliklarning kamayishi uchun zarur profilaktik tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. Xususan, xavfli o'smalar va qon aylanish tizimi kasalliklarini erta aniqlash: O'zbekistonning tibbiy skrinining samaradorligini oshirish, aholini yilda bir marta tibbiy tekshiruvdan o'tkazish. Xavfli o'smalarning erta bosqichda aniqlanishi uchun onkologik tekshiruvlarni kengaytirish. Qon aylanish tizimi kasalliklarini oldini olish uchun kardiologik skrininglarni joriy qilish. Ruhiy kasalliklar profilaktikasida esa ruhiy salomatlikni yaxshilash uchun psixologik yordam xizmatlarini kengaytirish zarur. Ruhiy salomatlik bo'yicha maxsus dasturlar va treninglarni tashkil etish, stressni boshqarish metodlarini o'rgatish lozim. Oila va jamoada ruhiy kasalliklarni oldini olish bo'yicha ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish. Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish: aholini sog'lom turmush tarziga o'rgatish, sport bilan shug'ullanishni targ'ib qilish, sog'liqni saqlashni yaxshilash maqsadida oziqlanish va jismoniy faollikni oshirishga qaratilgan tadbirlar o'tkazish.

Bundan tashqari tibbiy xizmat va tibbiy resurslarni yaxshilash, aholi turar joylarida tibbiy punktlar va diagnostika markazlarini tashkil etish, tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlash, tibbiy ma'lumotlarni tarqatish, aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, o'qituvchilar va o'quvchilarga sog'liqni saqlash haqida bilimlar berish uchun maktablarda sog'lom turmush tarziga oid darslar o'tkazish, ushbu profilaktik tadbirlar kasallanish, surunkali kasallik tufayli nogironlikni kamaytirish va sog'liqni yaxshilashga katta hissa qo'shadi.

Xulosalar.

1. Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birlamchi nogironlikka chalinishida asosiy o'rinlarni xavfli o'smalar (14,9%), qon aylanish tizimi kasalliklari (14,8%) va ruhiy kasalliklar (12,4%) egallaydi, bu esa sog'liqni saqlash tizimida ushbu kasalliklarga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2. 2010–2019-yillar davomida qon aylanish tizimi kasalliklari tufayli nogironlik holatlarida pasayish tendensiyasi kuzatildi, bu esa bu yo'nalishda ko'rilgan profilaktik chora-tadbirlarning nisbatan samarali bo'lganini bildiradi.

3. Ruhiy kasalliklar va asab tizimi kasalliklari bo'yicha nogironlik ko'rsatkichlari izchil oshib bormoqda, bu esa aholining ruhiy salomatligini yaxshilash va psixologik xizmatlarni kengaytirish bo'yicha tizimli yondashuvni talab qiladi.

4. Jarohatlar, suyak-mushak tizimi va hazm organlari kasalliklari ham mehnatga layoqatli yoshdagi nogironlikning muhim sabablaridan biri bo'lib qolmoqda, bu holat mehnat muhofazasi, ovqatlanish madaniyati va jismoniy faollik masalalariga e'tiborni oshirish zarurligini ko'rsatadi.

5. Statistik ma'lumotlarga asoslanib, nogironlikka olib keluvchi kasalliklar strukturasining o'zgarishi tibbiy xizmat sifati, aholi salomatlik madaniyati va erta diagnostika mexanizmlariga bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

6. Ushbu tahlil sog'liqni saqlash siyosatini rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va yuqori xavfli kasalliklar bo'yicha maqsadli profilaktika dasturlarini ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalari Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birlamchi nogironligiga olib keluvchi kasalliklar tuzilmasi va ularning 10 yillik dinamikasini chuqur tahlil qilish asosida sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish uchun amaliy asos yaratadi. Xususan, xavfli o'smalar, yurak-qon tomir va ruhiy kasalliklar nogironlikning asosiy sababchilari sifatida aniqlanganligi, ushbu yo'nalishlarda erta diagnostika, skrining va profilaktik xizmatlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari sog'liqni saqlash resurslarini maqsadli taqsimlash, yuqori xavfli kasallik guruhlarini bilan ishlash strategiyasini ishlab chiqish, epidemiologik nazoratni takomillashtirish hamda hududiy sog'lomlashtirish dasturlarini rejalashtirishda samarali qo'llanishi mumkin.

Kelgusidagi tadqiqotlar istiqbollari. Mazkur tadqiqot natijalari Farg'ona viloyatida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining birlamchi nogironligiga sabab bo'layotgan kasalliklarning strukturasi va 10 yillik dinamikasini aniqlash imkonini berdi. Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda nogironlikka olib kelayotgan yetakchi kasallik guruhlarini - xavfli o'smalar, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, ruhiy va asab tizimi kasalliklarini - chuqur klinik-epidemiologik jihatdan tahlil qilish, ularning yosh, jins va ijtimoiy omillar bilan bog'liqligini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Александрова О. Ю. и др. Динамика первичной и общей заболеваемости населения старше трудоспособного возраста //Проблемы социальной гигиены, здравоохранения и истории медицины. – 2020. – Т. 28. – №. 4. – С. 518-522.
2. Дашанимаева И. М., Спасова Т. Е. Особенности первичной инвалидности вследствие болезней системы кровообращения у населения г. Улан-Удэ //Проблемы стандартизации в здравоохранении. – 2022. – №. 1-2. – С. 44-52.
3. Дербенёв Д. А., Дроздов С. В., Дербенёва И. В. Особенности динамики уровня первичной инвалидности взрослого населения Приморского края в 2017-2019 гг //Тихоокеанский медицинский журнал. – 2020. – №. 4 (82). – С. 93-97.
4. Коврижных Ю. А., Запарий Н. С., Коврижных М. В. Анализ первичной инвалидности среди лиц пенсионного возраста вследствие злокачественных новообразований в г. Москве в период 2012-2018 гг //Здоровье населения и среда обитания. – 2020. – №. 7 (328). – С. 4-7.
5. Петров В. В., Сафин А. М., Шубин Л. Л. Изучение первичной инвалидности населения удмуртской республики в 2009 году //Modern Science. – 2020. – №. 12-2. – С. 181-184.
6. Савина А. А., Фейгинова С. И. Динамика заболеваемости болезнями системы кровообращения взрослого населения Российской Федерации в 2007-2019 гг //Социальные аспекты здоровья населения. – 2021. – Т. 67. – №. 2. – С. 1.
7. Соловьева Н. Н., Мурыванова Н. Н. Характеристика контингента лиц, признанных инвалидами I группы при первичном освидетельствовании взрослого населения в Ульяновской области за период 2014-2019 гг //Медико-социальные проблемы инвалидности. – 2020. – №. 2. – С. 109-114.
8. Урусова М. А. Первичная заболеваемость и инвалидность взрослого населения вследствие болезней поджелудочной железы в Белгородской области в динамике за 2010-2018 гг //Вестник Всероссийского общества специалистов по медико-социальной экспертизе, реабилитации и реабилитационной индустрии. – 2020. – №. 3. – С. 65-75.
9. Усенкова И. В., Брюхова В. Р., Сидамонидзе Т. А. Анализ показателей первичной инвалидности у взрослого населения красноярского края за период 2017–2019 гг //материалов научно-практической конференции по актуальным проблемам

медико-социальной экспертизы. – 2020. – С. 140.

10. Чандирли С. А., Пузин С. Н. Основные тенденции и закономерности формирования инвалидности вследствие ишемической болезни сердца в российской федерации за 2006-2017 годы // CardioСоматика. – 2021. – Т. 12. – №. 3. – С. 170-176.